

ISPAN TILIDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Dushayeva Umida Yusufvna

O'zbekiston davlat jajon tllari universiteti, Ispan tili amaliy fanlar kafedrası
f.f.f.d (PhD) dotsent.vb

Dushanova Moxinur Shuxrat qizi

Ispan tili amaliy fanlar kafedrası FISP 2304-guruh talabasi

Annoatatsiya: ushbu maqolada ispan tilidagi komparativ frazeologizmlarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Komparativ frazeologizmlar — ikki yoki undan ortiq obyektни solishtirish orqali obrazli ifoda yaratadigan til birliklari bo'lib, ular ispan tilining frazeologik boyligini namoyon etadi. Maqolada bu frazeologik birliklarning tuzilishi, leksik-semantik turlari, ularning obrazlilik va ekspressivlik darajasi, shuningdek, ularning boshqa tillardagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, komparativ frazeologizmlarning madaniy va milliy xususiyatlari, ularning tarjima jarayonidagi muammolari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari ispan tili frazeologizmlari semantikasini chuqurroq anglash va ularni lingvistik hamda tarjimaviy nuqtai nazardan samarali qo'llashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qiyoslash, solishtirish, komparativ, jarayon, frazeologik, obyekt,

Resumen: este artículo analiza las características semánticas de las locuciones comparativas en el idioma español. Las locuciones comparativas son expresiones idiomáticas que establecen comparaciones entre elementos con el fin de intensificar un significado o transmitir una imagen figurada. En el trabajo se estudian la estructura, los tipos léxico-semánticos, el grado de expresividad y la carga cultural de estas unidades fraseológicas. También se examinan sus peculiaridades nacionales y culturales, así como las dificultades que presentan en los procesos de traducción. Los resultados de

la investigación permiten comprender más profundamente la riqueza semántica de las locuciones comparativas en español y contribuyen a su aplicación en contextos lingüísticos y traductológicos.

Palabras claves: comparar, comparativo, proceso, flamiológico, objeto,

Ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon tilshunosligida komparativ so'zining qo'llanishi va uning ma'nosining ilmiy adabiyotlarda berilishi ham har xil ekanligi kuzatilmoqda. Komparativ so'zining mohiyatini yanada kengroq ochib berish maqsadida biz o'zbek va xorijiy tildagi izohli lug'atlarga murojaat qildik. Aytish joizki, tilshunoslikda ushbu so'zga oid ko'plab ta'riflar borligi ma'lum bo'ldi. Avvalo, o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda komparativ so'zining qanday semalar ifodalashini tahlil qildik. Masalan, Z.M.Ma'rufov tahriri ostida chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni (1981) tahlilga tortsak, unda komparativni ifodalovchi qator semalar borligi kuzatildi: – chog'ishtirma-taqqoslash, solishtirma, qiyosiy. Chog'ishtirmoq – bir predmet, voqea-hodisa, belgi va sh.k.ni boshqasi bilan taqqoslab ko'rmoq, qiyoslamoq, solishtirmoq. Shuningdek, 1. Qiyos – o'zaro chog'ishtirish, solishtirish, taqqoslash; muqoyasa, taqqos. 2. O'xshash, teng, misli. A.Madvaliyev tahririda nashrdan chiqqan izohli lug'atda komparativ quyidagi ma'nolarni ifodalashi aniqlandi: 1. Qiyoslash – solishtirish, o'xshatish. O'zaro chog'ishtirish, solishtirish, taqqoslash; muqoyasa, taqqos. Nisbat bermoq, o'xshatmoq, o'zaro taqqoslamoq. 2. Chog'ishtirmoq – biror narsa, voqea-hodisa, belgi va sh.k.ni boshqasi bilan o'zaro taqqoslab ko'rmoq, solishtirmoq. O'zaro chog'ishtirmoq. Ikki variantni chog'ishtirmoq, qiyoslamoq – o'zaro taqqoslamoq, chog'ishtirmoq, solishtirmoq, tenglashtirmoq, taqqos, muqoyasa qilmoq.

Yuqoridagi izohli lug'atlardan ma'lum bo'ladiki, komparativ so'zi ikkala izohli lug'atlarda ham mazmun jihatdan bir-biriga yaqindir. Aytish joizki, komparativ termini xorijiy izohli lug'atlarda o'zining turli xil ta'riflariga ega. Jumladan, fanda qiyosiy darajaning yoki komparativning bir nechta ta'riflari mavjud:

1) *Komparativ* – bu sifatning, u nomlayotgan oddiy darajadagi belgining o‘ziga nisbatan ortiq darajada ifodalanishini bildiradigan shaklidir.

2) *Qiyoslash* darajalari – asliy sifatlarning va ravishlarning predmetlarga yoki ish-harakatlarga xos bo‘lgan sifatdagis nisbiy farqni yoki ustunlikni ifodalovchi grammatik kategoriyadir.

3) *Komparativ* – oddiy darajada nomlangan o‘sha belgi bilan qiyoslaganda belgi namoyon bo‘lishining kuchli darajasini bildiruvchi sifat va ravishning grammatik kategoriyasidir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, qiyoslash idrok etish va real olamni bilish yo‘llaridan biri bo‘lib, ularni o‘zida aks namoyon etadi. Uning belgilari – analitik kuzatish va atrof-muhitni qurshab olgan real olamdagi obyektlari o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlik natijalari uchun mavhum ta’riflar mavjud emas. Demak, aniq qiyosiy tuzilmalar asosida birlamchi tasavvur – kuzatish, qiyoslash esa idrok qilish natijasi hisoblanadi. S.Gutyeres Ordonyes ta’kidlaganidek, “inson hamisha qiyoslashga intilish bilan qurshab olingan: tadqiqot olib borish, o‘lchash-chamalash, bilib olish, demak, qiyoslash...” Tilshunos olimlar ko‘p marta ta’kidlaydiki, qiyoslash xususiyati, tabiiyki, insonning bilish jarayoniga kiradi va tilning shakllanish vositasining biriga aylanadi. A.A.Potebnyaning fikricha, **“olamni bilish jarayoni – bu qiyoslash jarayonidir”**. Qolaversa, “qiyoslash, ya’ni bir tilni ikkinchisi bilan chog‘ishtirishdan ko‘zda tutilgan maqsad ularning munosabatlarini imkon qadar ochib berish; real olamni qiyoslash orqali turli xil lisoniy bog‘liqlik amalga oshiriladi”, bu o‘rinda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – predmet yoki real hodisalarni bir-biriga o‘xshash va farq qiluvchi belgilarini qiyoslash yordamida aniqlab berishdir.

Frazeologik qiyoslashlarda komparativ sifatida atoqli otlar ham ishlatilishi mumkin. Garchi atoqli otlar “semantik jihatdan kamayayotganligia va qandaydir ma’lumotni bildirmasligi ma’lum bo‘lsa-da, ularning ayrimlari go‘yo turdosh ma’noga va, shu bilan birga, bir vaqtlar tarixiy shaxslarga, kulgili tipdagi qahramonlarga, badiiy

adabiyotlarning hamda yunon-rim afsonalarining qahramonlariga xos bo'lgan sifatni konnotatsiya qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. O. Yespersen, hatto atoqli otlar eng ko'p sonli belgilarni konnotatsiya qiladilar, deb ta'kidlaydi. Ma'lum alomatlarini (belgilarni) konnotatsiya qiluvchi otlarning – ramzlarning bir qismi u yoki bu til jamoasining a'zolariga yaxshi ma'lum. Ispan tilida antik va diniy qatlamlar sezilarli o'rin egallaydi, masalan *“Salomon es el símbolo de la sabiduría: Más sabio que Salomon”*. *Yob, de la paciencia... Sanson, de fuerza: “Más fuerte que Sanson”*. *Judas, traición... Magdalena, pecado y arrepentimiento. Todos ellos han hecho proverbial el rasgo más conocido de su vida o carácter”*.

Atoqli otlarning komparativ sifatida keladigan qiyoslashlar orasida eng chastotaligi quyidagilardir: *más falso que Judas, fuerte como Hercules, tener más fuerza que Sanson, llorar como Magdalena, más viejo que Matusalen, más malo que Cain, más feo que Tito, más ladron que Caco. Badiiy asarlardan o'zlashtirib olingan obrazlar ham frazeologik qiyoslashlarda uchrab turadi: Cid, Sancho, Quijote*. Boshqa ismlar – ramzlar (tarixiy shaxslar, kulgili tipdagi qahramonlar) ispan tilining zamonaviy sohibi uchun yaxshi ma'lum emas. Yashirin ma'noni, ushbu ismlarning etimologiyasini bilmasdan turib, qiyoslashning ma'nosini tushunish qiyin, shu sababli ushbu birliklarni ishlatishda nutqda til birligining ma'nosini bexato aniqlash imkonini beradigan o'xshashlik belgisi albatta ishtirok etadi, masalan: *saber más que Merlín, saber más que Cardona, más listo que Cardona, saber más que Lepe (Lepe, Lepijo y su hijo), más feo que Picio, más feo que Carracuca, más perdido que Carracuca, tener más orgullo que don Rodrigo en la horca, etc.*

Yuqoridagi fikrlarni qisqacha xulosalab ta'kidlash mumkinki, frazeologik qiyoslashlarda ishlatiladigan otlar o'xshash semantik tabiatga egadirlar va konnotativ otlar hisoblanadilar, ular til jamoasi a'zolarida ushbu otlarga xos bo'lgan belgilar bilan assotsiatsiyalashadilar. Predmetlarni va obyektiv borliqning hodisalarini identifikatsiya qiluvchi otlardan farqli ravishda, yuqorida nomlari zikr qilinganlar

nafaqat denotativ, balki signifikativ ma'noga ham egadirlar va ma'lum belgilarni bildiradilar.

Ispan tilidagi komparativ frazeologizmni tasniflashning asosiy prinsiplari boshqa frazeologik birliklarniki kabidir – ularning semantikasi va strukturasi, ishlashi, pragmatikasi komparativ frazeologik tizimining qismi hisoblanadi hamda uning birliklari bu tizimning birliklari bilan umumiy jihatlariga egadir. Biroq, komparativ frazeologik birlikning strukturasi va semantikasi frazeologik birliklarning boshqa razryadlari orasidan ajratishga imkon beradigan o'ziga xos farq qiluvchi xususiyatlari mavjud. A.F.Kazanchevaning fikricha, KFBni tasniflash ikkita mezon asosida amalga oshirilishi kerak: komparant nima bilan qiyoslanadi (semantik tasnif) va KFB nimani tasvirlaydi (funktional tasnif). Shuningdek, komparant qaysi leksik-semantik guruhga qarashli ekanligini aniqlash uchun, A.F.Kazancheva komparativ frazeologik birliklarni bir nechta semantik guruhlariga ajratib: 1) KFBni o'simliklar dunyosi bilan va 2) KFBni uy va yovvoyi hayvonlar bilan qiyoslab tadqiqot olib borgan.

A.F.Kazancheva olamning lisoniy manzarasida ispan va rus tillarida taqqoslashni davom ettirib, bir qator sinonimlarda u yoki bu nominatsiyani tanlashda tilning nozik tomonlarini ko'rmaslik mumkin emas, deb ta'kidlaydi. Masalan, *burro* kabi hayvon uzoq vaqt davomida shikoyat qilmasdan ishlash qobiliyati, moyilligi bilan bog'liq: **trabajar como un burro – eshshakdek ishlar**. Asno so'zi burro so'ziga sinonim hisoblanadi, yuqoridagi so'zlar orqasida boshqa hayvon xususiyati gapda, ahmoqlik va o'jarlik, qaysarlik ma'nolari aks etadi: **terco como un asno – eshshakdek o'jar; estúpido como un asno – eshshakdek ahmoq**. Ya'ni, rus tilida *eshshakdek o'jar – qaysar, ahmoq* o'xshatishlari mavjud, shu bilan birga, *eshshakdek ishlar* komparativ frazeologik birikmasi ham qo'llaniladi. Bunday o'xshash holat ispan tilida ham kuzatiladi. Ta'kidlash lozimki, A.F.Kazancheva boshqa bir maqolasida KFBlarning muqaddas nomlarni anglatib kelishini ham isbotlab bergan.

Ispan tilida komparativ rang bildiruvchilarining tahlili ko'rsatadiki, qiyoslash obyekti sifatida, asosan, **gul nomlari** tanlanadi: **como una rosa – sog'lom, gul-gul**

ochilgan, como claveles – gilosdek qip-qizil (lablar haqida), juda chiroyli (odam qarab to‘ymaydigan), (qizlar, ayollar haqida); mevalar chiqadilar: como sandía (so‘zma-so‘z, tarvuz kabi) – qip-qizil, qirmizi; como la manzana – dum-dumaloq olma kabi, qizil. Barcha rang gammasidan komparativda quyidagi sifatlar rojo – qizil, blanco – oq, negro-qora, verde – yashil eng yorqini hisoblanadilar va katta variativlik bilan ajralib turadilar: *blanco como la nieve/ el jazmín / la leche / la call/la pared / el nardo / el yeso / un mármol / un muerto – qordek oppoq, negro como un buitre / el betún / el azabache/ la noche / el ébano/la pena / la endrina / el cordobán / la abutarda / un vencejo/un tordo / una abubilla – qarg‘adek qora, rojo como un cangrejo / la amapola / un tomate / una guinda / la grana / una acerola – qisqichbaqadek qizil.* Rang bildiruvchi predikat hisoblangan **verde** (yashil) ispan tilida quyidagi o‘xshatishlarda uchraydi: **verde como coles** – karamdek yashil; **verde como lirios** – suv nilufariga o‘xshash; **verde como lechuga** – choyyaproq salatidek; **verde como esmeralda** – zumrad kabi.

Malsevaning fikriga ko‘ra, amarillo, rubio, azul, verde sifatlari KFBlarni hosil qilishda yuqori mahsuldor hisoblanadi. **Amarillo**(sariq) sifati quyidagi komparativlarning tarkibiga kiradi: **como la cera, como la cera vírgen, como un muerto, como el oro.** Ulardan dastlabki uchtasi hammasidan ko‘proq so‘lg‘in yuzning xasta, sariq rangini xarakterlaydi.

Azul (ko‘k) sifati *azul como el cielo* KFBning tarkibiga kiradi. Osmon obrazi ispan va rus madaniyatida moviy va ko‘m-ko‘k rangning xarakteristikasi uchun an’anaviy hisoblanadi. U bilan ko‘proq ko‘zlar, ba’zan tashqi olamning predmetlari tavsiflanadi: **ojos azules como el cielo** – osmon kabi moviy ko‘zlar. Rojo (qizil) rangi bilan qiyoslashda ispan tilida quyidagicha komparantlar qayd qilingan: **rojo como un tomate** (so‘zma-so‘z: pomidordek qizil) – qisqichbaqa kabi qizil; **rojo como la grana** (so‘zma-so‘z: kermes kabi qizil) – qisqichbaqa kabi qizil; **rojo como la sangre** (so‘zma-so‘z: qondek qizil) – qip-qizil, qonday qip-qizil; **rojo como la manzana** (so‘zma-so‘z: olmadek qizil) – qizil yugurgan qisqichbaqa kabi qizil; **rojo como una**

sandía (so 'zma-so 'z: tarvuz kabi qizil) – qip-qizil, qirmizi va b. Rus tilida – *бу кровь, огонь, пламя, пожар, малина, рябина, свекла, бурак, перец, помидор, мясо* (qon, olov, alanga, o't, malina, namatak, lavlagi, qizilcha, garmdori, pomidor, go'sht) tarzida bo'ladi.

Ushbu holda **blanco** so'zi *pálido* ma'nosida yuzaga chiqadi: *“Está más blanco que la camisa, Agustinillo”, “David estaba blanco como la cera”*. Shuning uchun *pálido* sifatli KFBlarda blanco bilan bo'lgani kabi, o'sha o'xshatish obrazlari ham uchraydi: *“La muchacha estaba pálida como el mármol”*. Negro sifati KFBlarni hosil qilishda yuqori mahsulдорlikka egadir. Komparant sifatida odatda quyidagi obrazlar ishlatiladi: *azabache* – aqiq, *buitre* – qarg'a, *carbón* – ko'mir, *hormiga* – chumoli, *mora* – maymunjon, *zarza* – parmachak, *muerte* – o'lim, *noche* – tun, *terciopelo* – baxmal, *duxoba*, *alma de Judas* – Iuda qalbi, *boca de lobo* – bo'rining og'zi, *dolor* – qayg'u, *ébano* – qora daraxt, *endrina* – tyorn, *tinta* – siyoh, *nube* – qora bulut, *tizón* – qorakuya va b. Rus shuurida (his etishida) *черный, как уголь, сажа, деготь, смола, агат, ночь, жук, паук, ворон, таракан, сом, чернила, чернозем, чугу́н, омут, смородина, маслина, негр, цыган* (qora, ko'mir kabi, qurum, qorakuya, qatron, smola, chirkay, aqiq, tun, qo'ng'iz, o'rgimchak, qarg'a, suvarak, laqqa baliq, siyoh, qora tuproq) ishlatiladi: *azabache* –, *qorag'at*, *zaytun*, *negr*, *lo'li*) kabi o'xshatishlar o'rin olgan.

Shunday qilib, yuqoridagi misollar tahlilidan ko'rish mumkinki, so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan o'xshatish uchun aynan qaysi konkret obyekt tanlanishi diskurs tipi, funksional uslub, so'zlovchining qiziqishi, o'xshatishning vazifasi kabi pragmatik omillar bilan belgilanadi. O'xshatish ham predmetning rang belgisini aniqlashtirish uchun, ham badiiy ifodalilikning vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

U.Y.Dushayevaninf fikricha, har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta'sirchanligi va obrazlilikini yuzaga keltiruvchi shunday turg'un so'z birikmalari (Kompartiv frazeologik birikma – U.D.) tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo'lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarga nisbatan

qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog‘liqdir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o‘z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta’sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqea-hodisa va tabiat manzaralari ko‘pincha mubolag‘ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan taqqoslanadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazlilik oshadi, yuqori ta’sirchanlik va hissiy tuyg‘u yuzaga keladi.

D.Z.Xaydarovanning fikricha, turli tillar komparativ frazeologik birliklari tabiatini kuzatish xalqlarda umumiy va xususiy timsollar mavjudligini ko‘rsatadi. Ammo bu har qaysi til ifoda vositalarining tarixiy taraqqiyot natijasida mustaqil shakllanganini inkor etmaydi. Turli tillar lisoniy vositalarining o‘xshash jihatlari mavjudligi esa xalqlar turmush tarzidagi yaqinlikning ular tillarida o‘z aksini topganligi bilan izohlanadi. Binobarin, har bir til o‘zigagina xos badiiy-tasviriy vositalariga ega, deyilganda nafaqat o‘zgachalik, balki tillararo sinonimiya ham nazarda tutiladiki, bir tilga xos xususiyatlar o‘zga tilga ham mansub bo‘lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda badiiy muqoyasa asosida paydo bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalarini komparativ frazeologik birliklar deb ataladi. Bunday turg‘un vositalar ingliz tilida asosan «as», «such as», «as if», «as though», «like», «seem», rus tilida «-как», «точно», «словно», «буд то», o‘zbek tilida “-huddi”, “kabi”, “bamisoli”, “go‘yoki”, “singari”, “ga” o‘xshab kabi ko‘makchilar hamda lisoniy birliklarning obrazli asoslariga birikib keladigan “day”, “dek” qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘ladi. Demak, tarjimada asliyatning badiiy-estetik qimmatini qayta yaratish mas’uliyati tillararo mushtaraklik va o‘ziga xoslik xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘rishni talab qiladi.

Xulosa

Badiiy matnlar materiallari asosida olib borilgan ispan tili komparativ frazeologizmlarning semantik xususiyatlari tadqiqoti ushbu til birliklariga tegishli bo‘lgan bir qator xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tilshunoslikda komparativ frazeologiyaga bo'lgan tadqiqotchilarning nazariy qarashlari chuqur tahlil qilindi. Komparativ birliklarning funksional semantik strukturasi tahlili natijasida komparativ frazeologik birliklar belgilarining bevosita namoyon bo'lgan darajasiga qarab asosiy ikki tipga ajratib tahlil qilindi: 1) statik va dinamik belgilarni xarakterlovchi birliklar (*negro como el carbon, temblar como un azogado*); 2) belgilarning belgilarini xarakterlovchi birliklar (*santag como un angel, irse rapido como un relampago*).

Ispan tilida komparativ frazeologizmlarni ifodalashning asosiy grammatik vositalari qiyoslash oborotlari *va como, igual que (al igual que), lo mismo que, cual* qiyoslash bog'lovchilik ergash gaplar hisoblanib, komparativ birliklarni ifodalashning xilma-xil usullari orasida *como* bog'lovchili oborotlar eng ko'p tarqalgan, tez-tez takrorlanadigan mahsulдор lisoniy birlik ekanligi asoslandi.

Hozirgi ispan tilida bir qator umumiy tizimli xususiyatlarning mavjudligi, o'z navbatida, ularning *como + N* tipidagi komparativ birliklar bilan uzviy bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

Ispan tilining komparativ frazeologizmlari kelib chiqishining asosiy manbalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: hayvonot olami, tabiat hodisalari, yer osti boyliklari, insonning mehnat predmetlari, o'simliklar, Injil, diniy marosimlar, realiyalar, tarixiy voqealar, yunon-rim mifologiyasi, badiiy adabiyot, tarixiy shaxslar va boshqa .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dushayeva U.Y "Ispan tilida komparativ frazeologizmlarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari" Dissertatsiya Toshkent 2024. 29-30 b
2. Уфимцева А.А. Типы словесных знаков. – М., 2013. – С. 113
3. Арутюнова Н.Д. Коммуникативная функция и значения слова. 1999. НДВШ ФН

4. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 2002.
5. M.L.G.Huetos. Los nombres propios en la paremiologia latina y castellana. En.: “Revista de la Universidad de Madrid. Homenaje a Menendez Pidal. 5. – Madrid, 2005. – P. 12.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. 2020. – B. 380, 569.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 2020. 4 jild – B 271
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 2020. 4 jild – B. 275.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 2020. 5 jild – B. 513. O’sha joyda. – B. 569.
10. Грамматика русского языка 1980. – С. 562.
11. Р.Теленкова. Словарь русского языка. – М.: 1985. – С. 341
12. Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – М., 2004. – С. 367. <https://search.rsl.ru/ru/record/01006792911>.
13. Gutierrez Ordonez, Gutierrez Ordonez S. Estructuras comparativas. – Madrid: Arco Libros, S. L., 1997. – 57 p.
14. Потенция 1990. – Теоритическая поэтика. – М., Высшая школа, 1990. – С. 204.
15. Философский энциклопедический словарь. М.Энциклопедия, 1983. – С. 623
16. Мокиенко В.М. Словарь сравнений русского языка. – СПб., 2003; Лебедова Л. Устойчивые сравнение русского языка. Краткий тематический словарь. – Краснодар, Рубанский ГУ, 2003; Огольцев В.Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический). – М.: Русские словари. АСТ. Астрель, 2001
17. Казанчева А.Ф. Компаративные фразеологические единицы (КФЕ) испанского и русского языков с сакральными именам. Пятигорский государственный лингвистический университет. – Россия. Руснаука, 2012.

18. Haydarova D.Z. Фразеологические компаративные единицы и их перевод. Молодой ученый. Международный научный журнал. – № 18 (308) / 2020. – С. 597-599.
19. Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol.fan.bo'y.fals.dokt.(PhD) ...diss. – T.: 2017. – 151 b.;
20. Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol.fan.bo'y.fals.dokt.(PhD) ...diss. – T.: 2017. – 151 b.;
21. Hernandez, A.C. Sintaxis española. https://kupdf.net/download/nueva-sintaxis-de-la-lengua-espa-ntilde-ola-c-eacute-sar-hern-aacute-nde-alonso_5901cd38dc0d608934959e7f_pdf